# "Dunyo oʻzbeklari" nashri bosh muharriri Termiz shahrida

Image not found or type unknown



"Dunyo oʻzbeklari" nashri bosh muharriri Termiz shahrida
Xabaringiz bor, Kanadada yashovchi taniqli oʻzbek jurnalisti, "Dunyo oʻzbeklari" nashri bosh muharriri Ismat Xushev Oʻzbekiston boʻylab ijodiy safarlarda boʻlib, soʻnggi yillarda bu yerda amalga oshirilayotgan ulkan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni dunyoga koʻrsatib bormoqda.
Kecha, 3 avgust kuni Ismat Xushev ijtimoiy tarmoqlarda katta auditoriyaga ega

sahifalari orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirlar uyushtirib, Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi qator ijtimoiy-iqtisodiy soha ob’ektlari jumladan, “Zif textil” korxonasi “Indenim” gipermarketi va “Iseberg” oilaviy ko‘ngilochar markazi (muz saroyi) faoliyati haqida dunyo jamoatchiligiga hikoya qildi. Taniqli jurnalistga viloyat hokimining o‘rinbosari Jo‘rabek To‘rayev, viloyat hokimining matbuot kotibi Zaxriddin To‘rayev va Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiyevlar hamrohlik qilishdi.